

SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**Bakiyeva Muxabbatxon Kamaliddinovna**Qo'qon universiteti Andijon filiali
Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat
kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

ANNOTATSIYA: Maqolada ijtimoiy faol shaxs fuqaroligi kompetentligini shakllantirishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Xususan, muallif shaxsdagi faollikni oshirishda jamiyatimizning ta'siri va o'rni kattaligi, bunda davlatimiz tomonidan yaratiladigan shart-sharoitlarning muhim ekanligini ehtirol etadi. SHu bilan birga faollik tushunchasini shaxsning ongida rivojlantirishda pedagoglardan yuksak maxorat talab etishini ta'kidlab, bunda o'qituvchi va talabaniing uzviy hamkorlik o'rnatish lozimligini qayd etgan.

KALIT SO'ZLAR: kompetensiyaviy yondashuv, davlat ta'lim standarti, ijtimoiy faollik, azaliy qadriyatlar, urf-odatlar, kategoriya, komillik mezonı.

АННОТАЦИЯ: В статье раскрывается педагогическое значение формирования гражданской компетентности социально активной личности. В частности, автор отмечает значительное влияние общества на повышение социальной активности личности, а также подчёркивает важность условий, создаваемых государством для данного процесса. Наряду с этим акцентируется внимание на том, что развитие понятия социальной активности в сознании личности требует высокого профессионального мастерства педагогов. Отмечается необходимость установления тесного сотрудничества между преподавателем и обучающимся в процессе формирования гражданской компетентности.

Ключевые слова: компетентностный подход, государственный образовательный стандарт, социальная активность, национальные ценности, традиции и обычаи, категория, критерий совершенства.

Abstract: This article examines the pedagogical significance of developing civic competence in a socially active individual. In particular, the author emphasizes the significant role of society in enhancing an individual's social activity and highlights the importance of the conditions created by the state to support this process. Furthermore, the article points out that fostering the concept of social activity in an individual's consciousness requires a high level of professional competence from educators. It also stresses the necessity of establishing close cooperation between teachers and students in the process of developing civic competence.

Keywords: competency-based approach, State Educational Standard, social activity, national values, traditions and customs, category, criterion of perfection.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi ya'ni, jamiyatda bo'layotgan voqea, xodisa va jarayonlarga dahldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya etish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatimiz yoshlaridagi ijtimoiy faol shaxs kompetentligini shakllanishi va uni rivojlanishiga muhim poydevordir.

Jamiyatdan tashqarida odam rivojlana olmaydi va kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqa ularning amaliy faoliyatidagi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi munosabati bilan belgilanadi. Odam boshqa kishilarga munosabatda bo'lish orqali ongliroq bo'lib boradi va uning ijtimoiy hayoti muayyan mazmunga ega bo'ladi. Odam ongining yuksak belgisi –

uning o'zini anglashidir, odamning o'zini anglashi ham shaxsning muhim belgisidir. Shaxsning o'zini anglashi shundan iboratki, odam jamiyatda taraqqiy etar va mehnat qilar ekan, tevarak-atrofdagi muhitda o'zining individligini, subyektligini ajratadi. Shaxsning o'zini anglashi shunda ifodalanadiki, odam tevarak-atrofdagi olamda o'zini ajratish bilan bir vaqtda, o'zining shu olamga uzviy ravishda bog'langanligini anglaydi, o'ziga, o'z faoliyatiga va o'z vazifalariga anglab-bilib munosabatda bo'ladi. Shaxsning o'zini anglashi, "men" deb his qilishi hamisha muayyan mazmuni bilan yuzaga chiqadi. O'zining borligini anglashi, odamning o'zini kim deb bilishi – o'quvchi, ishchi, o'qituvchi, muhandis va shunga o'xshash deb anglashi, o'zining o'tmishini va kelajagini anglashi, boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatini anglashi, o'z huquq va burchlarini anglashi, o'zining fazilat va kamchiliklarini va shunga o'xshashlarni anglashi o'zini anglashga kiradi. Shaxs o'zini anglaganligidan o'zini- o'zi kuzata oladi va o'zini- o'zi bilib oladi, ko'nglidan o'tgan kechinmalarni tushuna oladi, o'zining xatti-harakatlariga o'zi tanqidiy ko'z bilan qaray oladi.

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z- o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat – bu uning faolligidir.

Faollik (lotincha "actus" – harakat, "activus" – faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu o'sha oddiy qo'limizga kalam olib, biror chiziqli tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Ijtimoiy faollik esa shaxsning har sohadan xabardorlik, komillik darajasini ko'rsatuvchi mezonidir.

Shaxs o'z hayotida muayyan bir ideal uchun, kishi istiqbolning o'z umrida amalga oshirish lozim deb hisoblaydigan va amalga oshiradigan muayyan obrazi uchun intiladi va shuni o'ziga oliy maqsad qilib oladi.

Shaxs taraqqiyotida irsiyat va muhitning rolini to'la inkor qilib bo'lmaydi, balki xar ikkisining ham ma'lum darajada o'z o'rnini bor. Lekin shaxs taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil ta'lim – tarbiya bo'lib xisoblanadi.

"Shaxsning shakllanishi" ikki xil ma'noda qo'llaniladi.

Birinchisi – shaxsning shakllanishi uning rivojlanishi, ana shu rivojlanish tushunchasi jarayoni va uning natijasi ekanligidir. Shu ma'nodagi shaxsni shakllantirish tushunchasi psixologik tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Uning vazifasi biror maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta'sirlar o'tkazish sharoitida rivojlanayotgan shaxsda nimalar mavjudligini (mavjud bo'lgan, tajriba yo'li bilan aniqlanadigan, namoyon bo'ladigan) va nimalar bo'lishi mumkinligini aniqlashdan iboratdir. Bu shaxsning shakllanishiga nisbatan xususan psixologik yondashuv hisoblanadi.

Ikkinchisi - shaxsni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalash sifatidagi shakllantirish (agar shunday deb aytish mumkin bo'lsa, "qolipga solish", "yasash", "tuzash"; A.S.Makarenko bu jarayonni "shaxsni loyihalash" deb juda topib atagan edi) dan iborat. Xususan bu shaxsni shakllantirish vazifalari va usullarini ajratib olishga pedagogik yondashuvdir. Pedagogik yondashuv shaxsning jamiyat unga qo'yayotgan ijtimoiy jihatdan taqozo etilgan talablarga javob beradigan bo'lishi uchun unda nimalar va qanday qilib shakllantirilishi kerakligini aniqlash zarur deb hisoblaydi. Shaxsni shakllantirishga psixologik va pedagogik yondashuvning aralashtirib yuborilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Aks xolda orzu qilingan narsa haqiqatda ro'y bergan narsa qilib ko'rsatilishi mumkin. Islohot hujjatlari o'qituvchilarning diqqat-e'tiborini hozirdayoq barcha o'quvchilarda

rivojlangan tarzda mavjud bo'lgan narsalarga emas, balki ularda shakllantirilishi lozim bo'lgan narsalarga qaratadi, maktab xodimlarini bartaraf etilishi kerak bo'lgan kamchiliklarni ahamiyatsiz qoldirmagan holda o'quvchilar bilan katta va mas'uliyatli ish olib borishga safarbar etadi. Shu o'rinda yoshlar shaxsini shakllantirish jarayoniga to'g'ri pedagogik yondashuv vazifalari aniq belgilab beriladi, tarbiya jarayonida nima shakllantirilgan bo'lishi kerakligi aniqlanadi.

Ijtimoiy faol shaxsning shakllanishida, unga maqsadga yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazishda tarbiya yetakchi rol o'ynaydi. Tarbiya shaxsning rivojlantirilishini jamiyat tomonidan qo'yilgan maqsadlarga muvofiq tarzda yo'naltirib boradi va uyushtiradi. Bu esa shaxsga har tomonlama rivojlanish, ma'naviy ongni shakllantirish, ongli intizomni, vatanparvarlikni tarbiyalash vositalari va yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu yuksak vazifalarning ro'yobga chiqarilishi shaxsning takomillashuvini tahmin etishi bilan birga har tomonlama kamol topishi, jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil bo'lishi bilan birga uning shaxs sifatida faollashuvida ham yetakchi o'rin tutadi.

Shaxsning faollashuvi jarayoniga bir qator omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitning qaror topganligi;
- fuqarolar ma'naviy-ahloqiy yetukligini ta'minlash masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi;
- ta'lim-tarbiya ishlarining muayyan maqsad asosida tizimli, uzluksiz va izchil olib borilayotganligi;
- tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega subyektlar imkoniyatlarining yagona ijtimoiy maqsad asosida tizimli, uzluksiz va izchil olib borilayotganligi;
- shaxs omilining ijtimoiy munosabatlar jarayonida yetakchi mavqega ega bo'lishi va boshqalar.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.: TDPU-2026.
4. Karimova V.M. Psixologiya. T.: Sharq, 2000.
5. Ivanov P.I., Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya" T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.